

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

GIYOHVANDLIK BILAN BOG`LIQ HUQUQBUZARLIKLAR  
PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH

To`rayev Suhrob Axror o`g`li

O`zbekiston respublikasi IIV akademiyasi 3-bosqich 314-guruh kursanti  
«Huquqbuzarlik profilaktikasi» ixtisosligi

**Annatotsiya:** Giyohvandlik bu ijtimoiy ildizlarga ega bo'lgan kasallikdir va har qanday deviant xatti-harakatlar ijtimoiy va shaxsiy rejani buzilishining natijasidir. Giyohvandlik – bu giyohvand moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq sabablar va oqibatlar majmuasining umumiy nomi. Giyohvand moddalarni qabul qilish bilan tibbiyotda og'riq qoldiruvchi moddalar o'rtasida farq mavjud, bunda Sog'liqni saqlash sohasida, bizda giyohvandlik bilan og'riq qoldiruvchi deb ataladigan dorilar mavjud, ularning asosiy maqsadi bemorda kuchli og'riqlarni engillashtirishdir. Morfin, kodein yoki gidromorfon bu dorilarning ayrimlari bo'lib, ularning barchasi, shu qatorda, ketma-ket to'rt oy davomida qabul qilinmaslik tavsiya etiladi. Giyohvand moddalarga asab tizimining maxsus holatini keltirib chiqaradigan moddalar kiradi – giyohvand moddalar bilan zaharlanish. Ular orasida eng mashhurlari: afyun, morfin, gashish, og'riq qoldiruvchi dorilar. Giyohvandlik – bu asrning kasalligi. O'n yil oldin, bo'sh kasal yoshlarning ozgina qismi ushbu kasallikdan aziyat chekdi. Bugungi kunda band va kamtarin o'spirinlar giyohvandlikka qarshi emaslar.

**Tayanch so`zlar:** Giyohvandlik vositalari, Psixotrop moddalari, noqonuniy aylanmasi, salbiy oqibatlari, giyohvandlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasi.

**Abstract:** Addiction is a disease with social roots, and any deviant behavior is the result of a violation of the social and personal plan. Addiction is a general name for a complex of causes and effects associated with the use of drugs. There is a difference between taking narcotic drugs and pain relievers in medicine, where in Healthcare, we have drugs called narcotic pain relievers, whose main purpose is to relieve severe pain in the patient. Morphine, codeine, or hydromorphone are some of these drugs, all of which are recommended not to be taken for four consecutive months. Drugs include substances that cause a special state of the nervous system - drug poisoning. Among them, the most popular are: opium, morphine, hashish, painkillers. Addiction is the disease of the century. Ten years ago, only a small number of sick young people suffered from this disease. Today, busy and modest teenagers are not against drugs.

**Key words:** Narcotic drugs, psychotropic substances, illegal circulation, negative consequences, prevention of drug-related offenses.

**Аннотация:** Наркомания – болезнь, имеющая социальные корни, и любое девиантное поведение – результат нарушения социального и личного плана. Наркомания – общее название комплекса причин и последствий, связанных с употреблением наркотиков. Существует разница между приемом наркотиков и обезболивающих в медицине, где в здравоохранении есть так называемые



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

наркотические обезболивающие. их основная цель – облегчить сильную боль у пациента. Морфин, кодеин или гидроморфон — некоторые из этих препаратов, и все из них не рекомендуется принимать в течение четырех месяцев подряд. К наркотикам относятся вещества, вызывающие особое состояние нервной системы – лекарственное отравление. Среди них наиболее популярны: опиум, морфин, гашиш, обезболивающие. Наркомания – болезнь века. Десять лет назад этим заболеванием страдало лишь небольшое количество больных молодых людей. Сегодня занятые и скромные подростки не против наркотиков.

6-may kuni prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakat genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni imzoladi.

Prezidentning "O'zbekistonda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Hujjat bilan O'zbekistonda giyohvandlik va narkojinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha 2024–2028 yillarga mo'ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi. Strategiya doirasida quyidagi maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning bu kabi giyohvandlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish vazifasi belgilandi:

- aholi, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarda "giyohvandlikka qarshi immunitetni, o'quvchi va talabalar orasida kuchli ta'sir qiluvchi dorilarni iste'mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta'lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta'sirchan targ'ibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik mexanizmlarni joriy etish;

- aholiga sifatli narkologik yordam ko'rsatish tizimini yangi usullar asosida rivojlantirish, giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostika, davolash va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiyasi tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli choralarni amalga oshirish;

- giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning noqonuniy aylanmasining yangicha, ayniqsa internet tarmoqdagi usullariga barham berish, bu boradagi tezkor-qidiruv, tergov va ekspert-kriminalistik choralar kompleksini, birinchi navbatda raqamlashtirish orqali rivojlantirish va boshqalar.

- davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda dorixonalarning giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, shuningdek, farmatsevtika korxonalari, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi subyektlar mas'uliyatini oshirishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

• giyohvandlikni davolash va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar, xulosalar, yutuqlar va yangiliklarni amaliyotga joriy etish hamda ommaga yetkazishni ta‘minlash.

Farmon bilan, shuningdek, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi (rais — bosh vazir Abdulla Aripov) va uning hududiy komissiyalari tarkiblari tasdiqlandi.

Strategiyani ro‘yobga chiqarishda 6 ta maqsad va uning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi.

Aholida giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish

• Televideniye efir vaqtining (praym taym) ijtimoiy reklamalar uchun mo‘ljallangan qismida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar iste‘moli va ularning noqonuniy muomalasining salbiy oqibatlari, shuningdek, aholiga narkologik yordam ko‘rsatish tizimidagi imkoniyatlari yoritiladi.

• Giyohvandlikning inson ma‘naviyati va sog‘lig‘iga zarari to‘g‘risida aholining ogohliligini oshirishda turli din va konfessiya vakillari imkoniyatlaridan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

• Hududlar kesimida **“Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati** a‘zolaridan iborat 14 ta ijodiy guruh shakllantiriladi hamda aholi orasida maqsadli targ‘ibot faoliyati tashkil etiladi.

• Giyohvandlikka chalingan shaxslar, jumladan, yoshlarni “mahalla yettiligi” ko‘magida faol ijtimoiy hayotga qaytarishni nazarda tutuvchi yangicha ishlash mexanizmlari joriy etiladi.

• Maktab o‘qituvchilari va inspektor-psixologlari tomonidan o‘quvchilarning zararli odatlari to‘g‘risida ota-onalarini xabardor qilish mexanizmi yaratiladi.

• O‘rta va o‘rta-maxsus professional ta‘lim muassasalarining fanlar va darsdan tashqari jarayondagi dasturlariga **ijtimoiy-emotsional o‘quv soatlari (SEL)** kiritiladi.

• Giyohvandlikka qarshi kurashishda mahallalardagi yoshlar yetakchilari rolini kuchaytirishga qaratilgan yangi ishlash mexanizmlari joriy etiladi.

• Chegaraoldi hududlarda joylashgan har bir mahallada (ovul, QFY) istiqomat qiluvchi aholi uchun giyohvandlik va narkojinoyatlarning salbiy oqibatlaridan ogohlantiruvchi targ‘ibot-tashviqot tadbirlari doimiy o‘tkaziladi.

• Xotin-qizlarning giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasiga aralashib qolishlarining oldini olish va ularni sog‘lom hayotga qaytarish bo‘yicha yillik manzilli tezkor-profilaktik tadbirlar dasturlari amalga oshiriladi.

• “Mahalla — oilaviy poliklinika — ta‘lim muassasasi” tamoyili asosida pedagog, tibbiyot xodimi, profilaktika inspektori va mahalla faollarining hamkorlikdagi profilaktik ishlari amalga oshiriladi.

• Xotin-qizlar orasida sog‘lom ma‘naviy muhitni shakllantirishga qaratilgan “Sharq ayoli ma‘rifati” loyihasi ishlab chiqiladi.

• Giyohvandlikka qarshi kurashish bo‘yicha “Targ‘ibot a‘lochisi” respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

• Sogʻlom turmush tarzini yorituvchi badiiy, hujjatli, animatsion hamda mulitikatsion filmlar va spektakllar ishlab chiqarish, shuningdek, konsert dasturlari, qoʻshiqlar, kliplar, qisqa metrajli ijtimoiy videoroliklar yaratish hajmi oshiriladi.

• Giyohvandlik va narkojinoyatlarning ayanchli oqibatlarini yoritishga qaratilgan tadbirlarda madaniyat, sport va sanʼat vakillari imkoniyatidan foydalaniladi.

• Ishlab chiqiladigan serial, kino va telenovellalar ssenariylariga giyohvandlik va narkojinoyatlarning salbiy oqibatlarini yorituvchi epizodlar kiritiladi.

• Giyohvandlikning salbiy oqibatlarini yorituvchi xorijiy davlatlarda ishlab chiqilgan taʼsirli badiiy, hujjatli, animatsion va mulitikatsion filmlarni davlat tiliga tarjima qilgan holda ularning namoyishi tashkil etiladi.

• **“Markaziy Osiyo — giyohvandlik vositalaridan xoli hudud”** konsepsiyasi taqdimoti Oʻzbekistonda tashkil etiladi.

• BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik boʻyicha boshqarmasining Voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish oʻyicha tashabbusiga Oʻzbekistonning qoʻshilishi boʻyicha amaliy choralar koʻriladi.

Sohadagi yangi mexanizmlar

• Giyohvandlik vositalari noqonuniy kirib kelishining (kontrabanda) asosiy yoʻnalishlari aniqlanadi, bu borada idoralararo yillik maxsus va tashkiliy tezkor profilaktik tadbirlar kompleksi tasdiqlanadi.

• Giyohvandlik vositalarini tezkor aniqlash yoʻnalishida dunyoda tan olingan maxsus texnik vositalarni ishlab chiqarish mahalliyashtiriladi, texnik qoʻllab-quvvatlash va xizmat koʻrsatish tashkil etiladi.

• Xalqaro pochta joʻnatmalari orqali giyohvandlik vositalari kirib kelishining oldini olish maqsadida pochta muassasalarining moddiy-texnik bazasi takomillashtiriladi.

• Narkojinoyatlar xavfi yuqori boʻlgan yoʻnalishlarni darajalarga tasniflash metodikasini ishlab chiqish orqali huquq-tartibot organlari kuch va vositalarini qayta taqsimlash boʻyicha amaliy choralar belgilanadi (narkojinoyatlar xavfi yuqori boʻlgan hududlarga aniqlik kiritiladi).

• Respublikada yangi paydo boʻlayotgan giyohvandlik vositalari muomalasi bilan bogʻliq muammolarni va prekursorlar noqonuniy muomalasi va suiisteʼmolini barvaqt aniqlash va bartaraf etish maqsadida vaqtinchalik taqiqlash yoki cheklash (moratoriy) tartibi joriy etiladi.

• Ilgʻor xorijiy tajribalar asosida respublikada tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud dori preparatlari, psixotrop moddalarga boʻlgan haqiqiy ehtiyoj aniqlanadi.

• Muruvvat yordami tariqasida giyohvandlik vositalarini respublikaga olib kirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda olib chiqish tartibi belgilanadi.

• Respublika budjeti, budjetdan tashqari mablagʻlar, xalqaro loyihalar va grantlar doirasida chegara oʻtkazish punktlari va bojxona postlari uchun zamonaviy maxsus texnik vositalarni xarid qilish hajmi oshiriladi.

• Jahon bojxona tashkiloti va Narkotiklarni nazorat qilish xalqaro qoʻmitasining maʼlumot bazalaridan Bojxona qoʻmitasining erkin foydalanish imkoniyati yaratiladi.





Date: 17<sup>th</sup> November-2024

- Giyohvandlik vositalarining kontrabandasi bilan bog‘liq holatlarga tezkorlik bilan chora ko‘rish maqsadida chegara hududlardagi yo‘l infratuzilmasi yaxshilanadi.
  - Respublika hududiga kirib keladigan va tranzit yuklar, xalqaro pochta jo‘natmalari xususida qo‘shni va xorijiy davlatlar bilan dastlabki ma‘lumotlarning elektron almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi.
  - **“Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”**gi qonunning yangi tahriri ishlab chiqiladi.
  - Giyohvandlik vositalarining ko‘rgazmali reklama (**narkograffiti**) va ularni **“zakladka”** usuli bilan tarqatishga qarshi javobgarlikni kuchaytirish orqali mazkur turdagi jinoyatlarni keskin kamaytirish choralari ko‘riladi.
  - **“Kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar”** tushunchasi normativ-huquqiy hujjat bilan belgilanadi.
  - Narkojinoyatlar yo‘nalishida transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha milliy qonunchilik hujjatlari takomillashtiriladi.
  - Narkojinoyatlar, noqonuniy muomaladan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etgan shaxslarga jazo tayinlashda yengillashtiruvchi mexanizmlarni va jazoni o‘tashdan muddatidan oldin ozod qilishni taqiqlovchi choralar belgilanadi.
  - Xorijiy davlatlarda turli maqsadlarda bo‘lib turgan O‘zbekiston fuqarolari uchun giyohvandlik va narkojinoyatlarning ayanchli oqibatlari xususida ogohlikni oshirishga qaratilgan profilaktik tadbirlar o‘tkazish ko‘lami oshiriladi.
  - Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida giyohvandlik va narkojinoyatlarning ayanchli oqibatlarini yorituvchi kontentlar ko‘paytiriladi.
  - Chet eldagi o‘zbekistonlik talabalarning giyohvandlik va narkojinoyatlarning salbiy oqibatlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.
  - Kriminogen vaziyat og‘ir bo‘lgan hududlarda alohida reja asosida tezkor profilaktik tadbirlarni tashkil etish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.
  - Giyohvandlik va narkojinoyatlar profilaktikasining milliy modeli yaratiladi.
  - BMTning Narkotik va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi hamda Narkotiklarni nazorat qilish xalqaro qo‘mitasi bilan manzilli hamkorlikni tashkil etuvchi O‘zbekistonning Avstriyadagi elchixonasi shtat jadvaliga qo‘shimcha ravishda birinchi kotib shtat birligi kiritiladi.
  - Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazi faoliyatini moliyalashtirish ishlari yakunlanadi va unda O‘zbekistonning 2024–2026-yillarda raisligi ta‘minlanadi.
  - Aholiga narkologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy kengashini tashkil etish tashabbusi ilgari suriladi.
- Narkojinoyatlarga qarshi kurashda zamonaviy ishlash usullari



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

• Avtotransport vositalari haydovchilarining mastlik darajasini aniqlash maqsadida ichki ishlar organlarining tegishli bo'linmalari **narkotesterlar** bilan bosqichma-bosqich ta'minlanadi.

• Giyohvandlik vositalarini noqonuniy ravishda ishlab chiqarishda qo'llanadigan asbob-uskuna, turli kimyoviy moddalar reyestri shakllantiriladi.

• Narkojinoyatlar haqida ma'lumot bergan yoki aniqlashda ko'maklashgan shaxslarni himoya qilish va rag'batlantirish instituti joriy etiladi.

• Ma'muriy huquqbuzarlikni giyohvandlik vositalari ta'siri ostida sodir etishni og'irlashtiruvchi holatlar qatoriga kiritish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi.

• Giyohvandlik vositalari va prekursorlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan noqonuniy laboratoriyalar aniqlanadi va faoliyatiga chek qo'yish bo'yicha metodikalar ishlab chiqiladi.

• Sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni aniqlash bo'yicha tezkor qidiruv chora-tadbirlar mexanizmlari ishlab chiqiladi.

• **Giyohvandlikka qarshi kurashish sohasini rivojlantirish uchun respublika jamg'armasi** tashkil etiladi.

• Noqonuniy muomaladan olingan giyohvandlik vositalarini narxlash amaliyoti o'rganiladi.

• Narkojinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish faoliyati takomillashtiriladi, bu borada qo'llanayotgan yangi moliyaviy jinoiy usullar aniqlanadi va bartaraf etish tizimi yaratiladi.

• Narkojinoyatlar bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'larini to'xtatish va musodara qilishning yangi mexanizmi ishlab chiqiladi.

• Narkojinoyatlarni tergov qilish jarayonida jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq moliyaviy jihatlarni bir vaqtning o'zida tekshiruvdan o'tkazish amaliyoti joriy etiladi.

• OAVda narkojinoyatlar sodir etgan shaxslarning sud jarayonlari yoritib boriladi.

• Internet tarmog'ida giyohvandlik vositalarini tarqatish bilan shug'ullanayotgan veb sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar cheklanadi.

• San'at va madaniyat vakillari, internet faollari tomonidan giyohvandlik vositalari targ'iboti uchun javobgarlik belgilanadi.

• Tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud o'simliklarning vegetativ jarayoni foto jamlanmasi shakllantiriladi.

• Narkojinoyatlarni aniqlash bo'yicha tezkor tadbirlar jarayonida **uchuvchisiz boshqariladigan maxsus texnikalar (dronlar)dan** foydalaniladi.

• Tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud yovvoyi o'simliklarni yo'q qilmagani uchun yer egalariga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish masalasi ko'rib chiqiladi.

• Giyohvandlik vositalarining qonuniy muomalasi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash jarayoni to'liq raqamlashtiriladi.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

• Xorijiy tajribalarni o'rganish orqali giyohvandlik tashxisini qo'yish usullari takomillashtiriladi.

• Narkologiya muassasalarida olingan tahlil (qon, siydik) namunalarini sud hukmi qonuniy kuchga kirgunga qadar saqlash tartibi belgilanadi.

• Huquq-tartibot idoralarining narkojinoyatlarga qarshi kurashuvchi bo'linmalari shtat birliklari bosqichma-bosqich oshiriladi.

• Huquq-tartibot idoralarining narkojinoyatlarga qarshi kurashuvchi markaziy va hududiy bo'linmalari tarkibida internet tarmog'ida narkojinoyatlarga qarshi kurashish tuzilmalari tashkil etiladi.

• Kinologiya xizmatlari tomonidan giyohvandlik vositalarini aniqlashga o'rgatilgan xizmat itlarini ko'paytirish, tayyorlash, ehtiyojdan ortig'ini eksport qilish amaliyoti joriy qilinadi.

• Tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud dori vositalarini elektron retsept asosida berish amaliyoti joriy etiladi.

Farmon bilan Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat komissiyasi va uning hududiy komissiyalari tarkiblari ham tasdiqlandi. Ularga milliy strategiyaning to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish vazifalari yuklangan.

Farmon bilan giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024-2028 yillarga mo'ljallangan milliy strategiya qabul qilindi. Strategiyada ichki ishlar organlarini narkotesterlar bilan ta'minlash, jinoyatlarni va huquqbuzarliklarni aniqlashda dronlardan foydalanish, mutaxassislar tayyorlash hajmini 5 baravarga oshirish va boshqalar maqsad qilingan.

Shu kunlarda mazkur strategiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti vakillari tomonidan e'tirof etilmoqda. Jumladan, BMT Narkotiklarni nazorat qilish xalqaro kengashi kotibi Mark Kolxon ushbu strategiya giyohvandlikka qarshi kurash sohasida «muhim qadam» deb atadi.

"Narkotiklarga qarshi kurash xalqaro kengashi O'zbekistonning 2024-2028 yillar uchun qabul qilingan Narkotiklarga qarshi milliy strategiyasini giyohvandlikka qarshi kurash sohasida milliy, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslarni yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim qadam, deb hisoblaydi", — dedi Mark Kolxon.

Shuningdek, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi direktor o'rinbosari Jan Lyuk Lemaye ham strategiyaning ahamiyati borasida so'z yuritib, xalqaro miqyosda giyohvandlik bilan bog'liq muammolarni hal etishga imkon berishini ta'kidladi.

"O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024 – 2028 yillarga mo'ljallangan milliy strategiyasi nafaqat, milliy, balki mintaqaviy va xalqaro miqyosda giyohvandlik bilan bog'liq muammolarning hal etilishiga imkon beradigan dolzarb hujjatdir", — dedi Jan Lyuk Lemaye.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Giyohvandlik: Odamlar va jamiyat uchun xavf" — Abduqahhor Sodiqov
2. "Narkomaniya va yoshlar: Ijtimoiy omillar va profilaktika" — Ilmiy jurnal
3. "Sogʻlom hayot: Oʻzbekistonda yoshlar va narkomaniya" — *Oʻzbekiston Yoshlari Kengashi*
4. "Giyohvandlikka qarshi kurashish: Global va mintaqaviy yondashuvlar" — *World Health Organization (WHO)* -jurnali

**INTERNET RESURSLARI**

1. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime) - [www.unodc.org](http://www.unodc.org)
2. Oʻzbekiston Sogʻliqni Saqlash Vazirligi ([www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz))

